



UDK101.1:316.323(575:1)

Azizjon MELIBOEV,
Qo'qon davlat universiteti ўqituvchisi, PhD
E-mail: aziznizomiddinovich@gmail.com
<https://orcid.org/orcid/0009-0000-4632-2476>

PhD A.Yusupov taqrizi asosida

ANALYSIS OF SCIENTIFIC RESEARCH ON PROVIDING SOCIAL WELFARE AND FIGHTING POVERTY

Annotation

The article presents opinions on the activities of world research centers in combating poverty and ensuring social well-being, one of the most important global problems of our time, and the necessary foundations of the reforms being carried out in the new Uzbekistan. Also, an attempt is made to reveal the analysis of scientific research on ensuring social well-being and combating poverty on the basis of historical, scientific, comparative and analytical methods, based on world experience, based on specific examples. We believe that the application of these analytical conclusions to the life of society will give good results in the ideological freedom of our youth and the free manifestation of their abilities and intellectual potential. In addition, the elimination of the problems of poverty and poverty that can torment the citizens of our society is a pressing issue facing our society today.

Key concepts: trend, welfare, social welfare, welfare index, poverty, poverty, methodology, OPAD, subsidy, Resolution No. PP-330.

АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ВОПРОСАМ ОБЕСПЕЧЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ И БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ

Аннотация

В статье представлены мнения о деятельности мировых исследовательских центров по борьбе с бедностью и обеспечению социального благополучия, одной из важнейших глобальных проблем современности, и необходимых основах реформ, проводимых в новом Узбекистане. Также предпринята попытка раскрыть анализ научных исследований по обеспечению социального благополучия и борьбе с бедностью на основе исторических, научных, сравнительных и аналитических методов, опираясь на мировой опыт, на конкретных примерах. Мы считаем, что применение этих аналитических выводов в жизни общества даст хорошие результаты в идеологической свободе нашей молодежи и свободном проявлении их способностей и интеллектуального потенциала. Кроме того, устранение проблем бедности и нищеты, которые могут мучить граждан нашего общества, является актуальной проблемой, стоящей перед нашим обществом сегодня.

Ключевые понятия: тенденция, благосостояние, социальное благосостояние, индекс благосостояния, бедность, нищета, методология, OPAD, субсидия, Резолюция № PP-330.

IJTIMOIIY FAROVONLIKNI TA'MINLASH, KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA ILMIY IZLANISHLAR TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada bugungi kundagi eng asosiy global muammolardan biri kambag'allik va qashshoqlikka qarshi kurash va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda jaxon tadqiqot markazlarining faoliyati va yangi O'zbekistonda olim borilayotgan isloxtlarning zaruriy asoslari haqida fikr muloxazalar bildirilgan. Shuningdek ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha ilmiy izlanishlar tahlili tarixiylik, ilmiylik, qiyosiylik va analiz, sintez metodlari asosida jaxon tajribasiga tayangan holda aniq misollar asosida ochib berishga harakat qilingan. Yoshlarimizning mafkuraviy ozod va o'z qobiliyatlari, intellektual salohiyatlarini erkin namoyon qilishda bu tahliliy xulosalarning jamiyat hayotiga tadbiiq qilinishi yaxshi natijalar beradi deb o'ylaymiz. Qolaversa jamiyatimiz fuqarolarining o'z iskanjasiga tortishi mumkin bo'lgan kambag'allik va qashshoqlik muammolarining bartaraf qilinishi bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan dorzab masalasidir.

Kalit so'zlar: tendensiya, farovonlik, ijtimoiy farovonlik, farovonlik indeksi, kambag'allik, qashshoqlik, metodologiya, OPAD, subsidiya, PQ-330-sonli qarori.

Kirish. Jahon miqiyosida kechayotgan rivojlanish tendensiyalarining natijalari ijtimoiy farovonlikka va aholining munosib hayot kechirishiga bo'lgan munosabatlarini ham o'zgartirmoqda. Ayniqsa ijtimoiy farovonlikka erishish uchun kambag'allikka qarshi kurash, qashshoqlik va nochorlikdan chiqarish, aholining munosib hayot kechirish, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash zaruriyati ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-sonli [1] Qarori jamiyatimizda qashshoqlikni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy farovonlik

konsepsiyasini amalga oshirishga qaratilgan dsturlardan biri bo'ldi. Shu bois rivojlangan mamlakatlarda kambag'allik darajasini qisqartirishning zamonaviy yo'llarini ishlab chiqish hamda mavjud usulalarini modernizatsiyalash tendensiyasi ro'y bermoqda.

Shuning uchun ham, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar o'zgarib borayotgan va moliyaviy tahdidlar ortib borayotgan davrda aholining kambag'al qatlamini jamiyatning faol qatlamiga aylantirish va ularning o'z hayotlaridan mamnun holda kun kechirishlariga erishish, ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy omillarini o'rganish dolzarblik kasb etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida ham "mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish", buning uchun "kambag'allikni qisqartirish davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy darajada ("mahallabay" tamoyili asosida) ijtimoiy ishlarni olib borish mexanizmini yo'lga qo'yish"[2] kabi ustuvor vazifalar belgilab olingan. Shu bilan birga, "kambag'allikni qisqartirish borasida oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga erishish uchun hali ko'p izlanishlar talab etiladi. Ijtimoiy farovonlikni ta'minlash, kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, AQSH da "Institute for Research on Poverty", Stanford University "Center for the Study of Poverty and Inequality", Columbia University "National Center for Children in Poverty", University of Kentucky "Center for Poverty Research", Harvard University ilmiy markazlarida, Buyuk Britaniyaning University of Bristol "Townsend Centre for International Poverty Research", La Sapienza Rim Universiteti (Italiya), Cooperative for Assistance and Relief Everywhere (Shveysariya), "The Organization for Poverty Alleviation and Development" OPAD (Shvetsiya), China Perspectives (Xitoy), Mehnat tadqiqotlari ilmiy markazi (Rossiya Federatsiyasi), Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti (O'zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Ijtimoiy farovonlikni ta'minlashda kambag'allikka qarshi kurashning ijtimoiy-falsafiy asoslariga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: kambag'allikning kelib chiqish sabablari va ularni unga qarshi kurashning zamonaviy mexanizmlari taklif qilingan (Harvard University, AQSH); kambag'allikka qarshi kurashda ijtimoiy himoya tizimini yaratish yo'llari tadqiq etilgan (Stanford University "Center for the Study of Poverty and Inequality" AQSH); kambag'allik va tengsizlikni Amerika xalqi farovonligiga ta'sirini kamaytirish va davlat siyosati samaradorligini oshirish tizimi taklif qilingan (University of Kentucky "Center for Poverty Research" AQSH); kambag'allik chegarasini aniqlash, ocharchilikning oldini olish va kambag'al oilalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash yo'llari takomillashtirilgan Cooperative for Assistance and Relief Everywhere (Shveysariya); kambag'allik ijtimoiy oqibatlarini oila mustahkamligiga ta'sirini qisqartirish yo'nalishlari tavsiya qilingan (La Sapienza Rim Universiteti, Italiya); ocharchilikka qarshi kurashish va gender tenglikka erishish mexanizmlari takomillashtirilgan ("The Organization for Poverty Alleviation and Development" OPAD) Shvetsiya; aholini ijtimoiy himoya qilish, kambag'allikni kelib chiqishi sabablari va uni qisqartirishning nazariy-uslubiy jihatlarini taklif etilgan (O'zbekiston Milliy Universiteti, O'zbekiston).

Natijalar va muhokama. Jahonda aholi farovonligini oshirish va o'zgaruvchan kambag'allik shakllarining tasnifini ishlab chiqish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: kambag'allikning o'zgaruvchan rivojlanish tabiatiga bevosita bog'liqligini asoslash; aholi turmush sifatini ko'tarish va kambag'allikka qarshi kurash usullarini takomillashtirish; kambag'allik shakllari va uning mahalliy xususiyatlarini aniqlash; kambag'allik beqarorligining sabab ("tuzog'i") va oqibatlarini tahlil qilish hamda oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish.

BMT ta'rifiga ko'ra, "qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlanmaslik, sog'liqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklolarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda

ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashga nisbatan aytiladi" [3; <https://uz/news/2021/01/02/kambag'allik-va-qashshoqlik-ortasida-qanday-farq-mavjud>].

Bugungi kunda butun dunyoda olimlar, siyosatchilar, davlat arboblari va jamoatchilik vakillari o'rtasida kambag'allikning kelib chiqish sabablari, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, uni bartaraf etish yo'llari xususida ilmiy munozaralar, turli ko'rinishdagi davra suhbatlari va sababiy bog'liqlikda ilmiy-amaliy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, G.Kosharnaya va L.Karimova o'zlarining ilmiy izlanishlarida ushbu kategoriyaga quyidagicha yondashuvni bayon qilishadi. Unga ko'ra, "aholining hayot farovonligiga erishishi va uni turli kategoriyalar orqali aniqlashni taklif etadi: 1) farovonlik – jismoniy va intellektual imkoniyatlardan to'liq foydalanish orqali insonni har tomonlama rivojlanishi; 2) kambag'allik – iste'mol miqdorini saqlab qolinishi va mehnatga layoqatli bo'lish; 3) qashshoqlik – iste'molning minimal darajasi bo'lib insonning biologik imkoniyatlariga ta'minlanishini anglatadi"

[4; <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-odhody-k-izmereniyu-urovnya-bednosti-v-sovremennoyrossii/viewer>]. Bizningcha, ushbu xulosalarda kambag'allikni aniqlashga qaratilgan yondashuvlar keltirildi. Ularda asosiy e'tibor hayot darajasini belgilab beruvchi omillar – yashash sharoiti, ovqatlanish va kiyim bilan ta'minlanganlik kabi jihatlariga qaratildi. Bu esa, ushbu tovar va xizmatlarni sotib olish uchun minimal daromad darajasini belgilashning zaruratini keltirib chiqaradi.

2019-yilda iqtisodiyot sohasida Nobel mukofotini qo'lga kiritgan A.Banerji, E.Dyuflo va M.Kramer tomonidan davlatlar va xalqaro tashkilotlar amalga oshirayotgan islohotlarning nechog'liq natija berayotganligini ko'rsatib berildi. Nafaqat O'zbekiston, balki jahon tahlili, bu boradagi tadbirlarni tubdan o'zgartirish zaruratini isbotlab berdi.

Tadqiqotlarga ko'ra, birinchi omil – maktab ta'limida ikki omil o'quvchilarning qiziqishi va o'qituvchilar bilan ma'lum muddatli shartnomalar muhim ekanligi isbotlandi. Qayd etish lozim, maktab ta'limidagi muammolar nafaqat kambag'allik muammolarini balki, boshqa ijtimoiy-huquqiy muammolarni ham chiqarishi ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan.

Ikkinchi omil - sog'liqni saqlash tizimida insonlarning farzandlari sog'lig'i uchun investitsiya qilmasliklari yoki uni ortga surib kelishlari salbiy ta'sirga ega ekanligini qayd etishadi. Shu boisdan, bolalarni infeksiyalarga qarshi emlashda vaqtinchalik subsidiyalar doimiylaridan ko'ra samarali ekanligini qayd etib o'tishadi.

Ijtimoiy farovonlik – bu jamiyatning barqaror rivojlanishini, aholining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish hamda ularning hayot darajasini oshirishni ta'minlaydigan murakkab konsepsiyadir. Ushbu tushuncha tarixan turli davrlarda va mamlakatlarda turlicha ta'riflangan bo'lsa-da, uning asosiy maqsadi insonlarning munosib hayot kechirishini ta'minlashdir.

Ijtimoiy farovonlikning asosiy elementlari orasida iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy adolat, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi, ekologik barqarorlik hamda odamlar o'rtasidagi hamjihatlikni ko'rsatish mumkin. Insonlarning iqtisodiy farovonligini oshirish uchun samarali ish o'rinlari yaratish, inson resurslarini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning asosiy sharti – barqaror iqtisodiy rivojlanishdir. Davlat iqtisodiyoti o'sishi uchun investitsiyalar jozibadorligini oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va ish o'rinlari yaratishga e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga, mamlakat resurslarini samarali foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardosh

mahsulotlar ishlab chiqarish muhimdir. Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirish ijtimoiy farvonlikka erishishda asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois ta'lim tizimini takomillashtirish, zamon talabiga mos bilim va ko'nikmalarni berish muhim ahamiyatga ega. Uzluksiz ta'lim asosida sifatli ta'lim berish, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlarga e'tibor qaratish kerak. Farovon hayot vaqtga, ayniqsa bo'sh vaqtga ratsional yondashish, undan unumli foydalanish imkonini beradi. Bo'sh vaqtda kishi dam oladi, o'zining psixofiziologik imkoniyatlarni tiklaydi, ertaga boradigan ishi uchun, ijtimoiy vazifasini bajarish uchun kuch yig'adi. Farovon turmushning muhim ko'rsatkichi bo'lgan bo'sh vaqtga ratsional munosabat kishini intellektual va ma'anaviy axloqiy rivojlanishga undaydi. Faylasuflar mudom insonning o'z umriga, vaqtga o'ta ziyraklik va talabchanlik bilan yondashishga undab kelishgan, bu bejiz emas. Inson umri vaqt (soniya, daqiqa, soat, hafta, oy, yil) larda o'z ifodasini topadi, demak, vaqtga munosabat umrga munosabatdir. Shuning uchun ham Seneka shogirdini vaqtini kerakli narsalarga sarflashga, uni boshqalar tomonidan o'g'irlanishiga yo'l qo'ymaslikka chaqiradi. Insonda yakkeyu yagona boylik u vaqt, uni behuda narsalarga sarflagan adashadi, deb ko'rsatadi faylasuf [5; S. 180-181]. Maxsus tadqiqotlardan ma'lumki, farovon yashayotgan kishi bo'sh vaqtdan ratsional foydalanishga, sayohatlarga chiqishga intiladi. Sayohat kishining dunyoqarashini, bilimni oshiradi, unga turli xalqlar madaniyati bilan tanishish imkonini beradi.

Inson favrvonligi va rivojlanishi indeksini hisoblashda uch ko'rsatkich hisobga olinadi: YAIMning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qismi (AQSH dollarida); ta'lim, mamlakat aholisining savodxonlik darajasi (2/3 nisbatda), hamda ta'lim olayotganlar 6 yoshdan 23 yoshgacha (1/3 nisbatda); o'rtacha umr ko'rish darajasi, kutilayotgan umr ko'rish davomiyligi.

Inson faoliyatining tahlilini olib boruvchi tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining sifat va miqdor ko'rsatkichlari tahlilini doimiy ravishda olib borib, tahlil orqali davlatlarning rivojlanish darajasini kuzatib boradi.

Inson favrvonligi va rivojlanishi indeksi ko'rsatkichidan tashqari, ilmiy asoslangan va ishlab chiqilgan yana bir qator ko'rsatkichlar bor, ular: inson kamolotining rivojlanish indeksi, uzoq umr, ta'lim, farovon hayot ko'rsatkichlari orqali jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tahlil qiladi; sog'liq (uzoq umr ko'rish) indeksi, aholi sog'lig'i darajasini turli kasalliklarning rivojlanish darajasi, tug'ilish, onalik o'limi ko'rsatkichlari orqali tahlil qiladi; ta'lim indeksi, mamlakatda ta'lim oluvchilar saviyasi darajasining tahlilini amalga oshiradi; aholi daromadlari indeksi, aholi daromadlarining qiyosiy darajasini tahlil qiladi; kasbiy ta'lim indeksi, ta'lim oluvchilarning ikkinchi va uchinchi bosqichi sifatini tahlil qiladi.

O'zbekiston tarixida ilk bor kambag'allik masalasi 2020-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida ko'tarilib, mazkur mavzu davlatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishiga aylandi. Avvallari "kam ta'minlangan", "ehtiyommand" yoki "ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami" kabi atamalar bilan niqoblangan kambag'allik so'zidan uyalish emas, uni bartaraf etish va qisqartirish choralarini ko'rish hukumat darajasida anglab yetildi. Kambag'allikni qisqartirib borish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Aslida, kambag'allikni qisqartirish tushunchasi bilan iqtisodiy o'sish bir-biriga mutanosib iboralardir. Zotan, resurslarning qay darajada ko'p bo'lishi kambag'al qatlamga yordam ko'rsatish imkoniyatlarini va manbalarini shu darajada oshiradi. Kambag'allikka qarshi global yechim bu barqaror iqtisodiy o'sishdir.

Farovonlik indeksi jamiyatning turli jihatlarini va ijtimoiy farovonlik parametrlarini aks ettiruvchi 12 toifaga birlashtirilgan ko'plab turli ko'rsatkichlar asosida tuzilgan. O'zbekistonning ushbu parametrlar bo'yicha o'rni quyidagicha: ijtimoiy kapital (46-o'rin); sog'liqni saqlash (49-o'rin); xavfsizlik (53-o'rin); ta'lim (73-o'rin); iqtisodiyot sifati (79-o'rin); yashash sharoitlari (103-o'rin); infratuzilma va bozorga kirish imkoniyati (104-o'rin); investitsiya muhiti (107-o'rin); ishbarmonlik muhiti (121-o'rin); davlat boshqaruvi (123-o'rin); shaxsiy erkinliklar (147-o'rin); atrof-muhit (162-o'rin). Rivojlanayotgan mamlakatlararo tadqiqotlarning an'anaviy hisob-kitoblariga ko'ra, mamlakatning o'rtacha daromadini 10 foizga o'sishi kambag'allik darajasini 20 dan 30 foizgacha kamaytiradi [6; lessons and insights from 14 countries]. Tahlillardan aniqlanishicha, aholi jon boshiga daromadning o'rtacha bir foizga oshishi qashshoqlikni 1,7 foizga qisqartirdi [7].

Xulosa va takliflar. Jahon mamlakatlarida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha asosan ikki yo'nalishdagi strategiyalardan foydalaniladi. Rivojlanayotgan davlatlar aholisini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha, iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar esa, aholi o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, qashshoq aholi qatlamlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan choratadbirlarni olib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda aholining kambag'al qatlamlarini ish bilan ta'minlash, ana shunday oilalar daromadlarini oshirish va ularni tadbirkorlikka jalb qilish orqali kambag'al qatlamlar salmog'ini qisqartirishga erishish iqtisodiy siyosatning markaziy bo'g'inini tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-330-sonli Qarori ayni shu sohada tub burilishlarning yangi to'lqinini vujudga keltiradigan tarixiy hujjat bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 23.09.2024 yildagi PQ-330-son <http://lex.uz/uz/docs/-7109778> "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60 Фармони // <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Камбағаллик ва қашшоқлик ўртасида қандай фарқ mavjud? <https://uz/news/2021/01/02/kambagallik-va-qashshoqlik-ortasida-qanday-farq-mavjud>
4. Кошарная Г.Б., Каримова Л.Ф. Основные подходы к измерению уровня бедности в современной России//<https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-podhody-k-izmereniyu-urovnya-bednosti-v-sovremennoyrossii/viewer>
5. Сенека. Нравственные письма к Луцилию. - Москва: АСТ, 2022. С. 180-181.
6. Operationalising Pro-Poor Growth (OPPG) Programme (2005), 'Pro-Poor Growth in the 1990s: lessons and insights from 14 countries'
7. Global Economic Prospects, 2017